

## AGRAR ISHLAB CHIQUARISHDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHLTLARI

**Nazarova Feruza Usmonovna**

*TMC instituti "Iqtisodiyot, moliya va buxgalteriya hisobi"  
kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Ushbu tezisdagi agrar ishlab chiqarishda inson kapitalini rivojlantirishning nazariy jihatlari tadqiq etilgan: agrar sohada inson kapitalini shakllantirishning ilmiy asoslari tahlili va rivojlantirish tamoyillari o'rganilgan. Korxonalarda inson kapitalini rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati yoritib berilgan.*

**Kalitli so'zlar:** *inson kapitali, agrar soha, jarayonlar modifikatsiyasi, tashqi ta'sir omillari, ichki ta'sir omillari, kasbiy rivojlanish.*

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В АГРАРНОМ ПРОИЗВОДСТВЕ

**Аннотация.** *В данном тезисе исследованы теоретические аспекты развития человеческого капитала в аграрном производстве. Проведен анализ научных основ формирования человеческого капитала в аграрной сфере и изучены принципы его развития. Также раскрыто экономическое значение развития человеческого капитала на предприятиях.*

**Ключевые слова:** *человеческий капитал, аграрная сфера, модификация процессов, внешние факторы влияния, внутренние факторы влияния, профессиональное развитие.*

## THEORETICAL ASPECTS OF HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT IN AGRICULTURAL PRODUCTION

**Abstract.** *This thesis examines the theoretical aspects of human capital development in agricultural production. The scientific foundations of human capital formation in the agricultural sector are analyzed, and the principles of its development are explored. The economic significance of human capital development at enterprises is also highlighted.*

**Keywords:** *human capital, agricultural sector, process modification, external influencing factors, internal influencing factors, professional development.*

Ta'kidlash lozimki, ijtimoiy bozor iqtisodiyotining yangi shart-sharoitlari intensiv rivojlanishga, innovatsiyalarni jalb etishga, jarayonlarni modifikatsiyalash,

takomillastirish usul va uslublari o'tishga yo'naltirilgan. Shu munosabat bilan inson kapitalini shakllantirish va undan foydalanish masalalari bo'yicha tadqiqotlar o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, zamonaviy ishlab chiqarish kuchlarini to'liq rivojlantirish uchun intellektual hamda innovatsion-axborot omillarini shakllantirish zarur, chunki aynan shu omillar insonning iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarida ijtimoiy-iqtisodiy roli mustahkamlanishiga yordam beradi.

Shu bilan birga, agrar sektordagi muammolarni hal qilish inson kapitalidan foydalanish bo'yicha yangi yondashuvlarni ishlab chiqish va joriy etishni, ijtimoiy sohani yaxshilashni talab etadi. Bu esa o'z navbatida xodimlarning bandligini oshirish va inson kapitaliga investitsiyalarni ko'paytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, inson kapitali nazariyasi va uning asosida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat davlatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, turli sohalardagi tadbirkorlar birlashmalari ham ijtimoiy hamkorlik asosida belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish imkoniyatiga egadirlar.

Shunday qilib, inson kapitali — raqobatbardoshlik va iqtisodiy o'sishning muhim sohasi ham hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, inson kapitali konsepsiyasi muayyan paydo bo'lish qonuniyatlari va tarixiy shart-sharoitlarga ega bo'lib, ular ilmiy tadqiqotlar ob'ekti hamdir [1].

Hozirgi kunda inson kapitaliga oid ham nazariy, ham amaliy masalalar ilmiy jamoatchilik orasida bahsli bo'lib, chuqur tahlilni talab etadi.

Agrar soha tizimida professional bilim va ko'nikmalarni shakllantirish insonning yangi sifat xususiyatlarini egallashiga yordam beradi. Bu esa mehnat unumdorligi va aholi daromadlarining ortishiga olib keladi hamda natijada inson kapitalining shakllanishiga xizmat qiladi. Inson kapitali sohalarning faol tarkibiy qismi sifatida uning kapitallashuv darajasini oshirishga qobil bo'lib, butun ishlab chiqarish va qishloq hududlari tizimidan samarali foydalanishni ta'minlab beradigan asosiy omil hisoblanadi [2]. Bu tizim fermer xo'jaliklaridan tortib mahsulotni qayta ishlash korxonalari va sohangacha, shuningdek, keng miqyosda alohida hudud va butun davlat darajasini ham qamrab oladi.

Inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish masalalari hamda iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish jarayoni o'zaro bog'liq ekanini alohida ta'kidlash lozim. Inson kapitali va fanning ishlab chiqarish texnologiyalari bilan uzviy bog'liqligi zamonaviy rivojlangan ishlab chiqarish sharoitida xodimlarning kasbiy salohiyatiga bo'lgan talabni oshiradi.

Inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish tizimini tadqiq etar ekanmiz, uning o'zaro bog'liq jarayonlar, ob'ektlar va hodisalar majmuasini qamrab olishini ta'kidlash joiz. Bu jarayonlar tufayli O'zbekiston mamlakati qishloq hududlarida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda faoliyat yuritayotgan shaxslarda yangi ijtimoiy va ishlab chiqarish xususiyatlari shakllanadi.

Inson kapitalini boshqarish tizimini tavsiflar ekanmiz, uning tuzilmaviy qismlarini ajratamiz. Ularning qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Tashqi ta'sir omillari:
  - agrar sektorni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish;
  - iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish;
  - mamlakatdagi siyosiy vaziyat va institutsional barqarorlik;
  - texnika-texnologik rivojlanish hamda uning ishlab chiqarish bilan integratsiyasi;
  - agrar sektordagi mehnat bozorining tashqi omillari.
2. Ichki ta'sir omillari:
  - agrar korxonaning maqsadlari;
  - korxonaning iqtisodiy-moliyaviy salohiyati;
  - tashkil etilgan tashkiliy tuzilma;
  - boshqaruv uslubi, usullari, madaniyati;
  - korxonada kadrlar siyosati.

Korxonada va inson kapitali egasi — xodim o'rtasidagi o'zaro aloqaning muayyan qonuniyati mavjud bo'lib, u: "Qancha boy va imkoniyatli bo'lsa korxonada, inson kapitaliga yo'naltiriladigan mablag'lar shunchalik ko'p bo'ladi va malakali mehnat kuchini jalb etish borasidagi raqobat ham shunchalik samarali kechadi" [3].

Shu sababli, inson kapitalini rivojlantirishning asosiy omillari korxonaning ushbu maqsadlarga mablag' ajratish imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liq.

Ushbu omillar orasida quyidagilarni alohida ta'kidlash mumkin: korxonaning ishlab chiqarish kuchlari rivojlanish darajasi. Bu inson kapitaliga ta'sir ko'rsatadi, chunki xodimlar yangi texnika, zamonaviy jihozlar, ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqaruv va marketingning yangi usullari bilan o'zaro hamkorlik qilishga majbur bo'ladilar.

Inson kapitalidan samarali foydalanishni oshirish vazifalarini ko'rib chiqarkanmiz, quyidagilarni ta'kidlash lozim:

- Korxonaning innovatsion rivojlanish strategiyasi xodimlarni har tomonlama kasbiy rivojlanishga undaydi, bu esa keyinchalik mehnat faoliyatida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi, shuningdek, ularning ishga bo'lgan qiziqishini va samaradorligini oshiradi;
- Yuzaga kelayotgan ishlab chiqarish muammolariga individual yechimlar izlashga bo'lgan rag'bat oshadi;
- Korxonalarida korporativ madaniyat darajasi xodimlarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi hamda jamoada umumiy natijaga erishish yo'lida hamkorlikda mehnat qilishni rivojlantiradi;
- Korxonada ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, mehnat sharoitlari va mehnat muhofazasini ta'minlash, xodimlar va ularning oilalari uchun dam olish va turmush sharoitlari, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish muhim

ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan, ijtimoiy xizmatlar va ish o'rinlarining yashash joyiga yaqinligi muhim omil hisoblanadi;

- Qishloq joylarda fuqarolarning ish bilan bandligi va daromad (ish haqi) darajasi inson kapitalini shakllantirishda ustuvor o'rinni egallaydi. Barqaror va yuqori ish haqi inson kapitali rivojlanganligini va uning muvaffaqiyatli qo'llanilayotganligini ko'rsatadi;
- Malaka oshirish tizimining joriy etilishi xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarida faoliyat yuritayotgan korxonalarda inson kapitalidan foydalanish sifatini va samaradorligini oshirish uchun rag'batlantiruvchi investitsiyaviy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish zarur.

Yangi tarmoq sohalarini rivojlantirishda, barpo etiladigan korxonalarni rivojlantirishda strategik resurs sifatida inson kapitali tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda va uning mazmuni yangi ma'noga ega bo'lmoqda. Shu munosabat bilan, inson kapitalini shakllantirish va undan foydalanish uchun samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmni ishlab chiqish zarurati paydo bo'ldi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kyazimov K.G. Upravlenie chelovecheskimi resursami: professionalnoe obuchenie i razvitiye: uchebnik dlya akademicheskogo bakalavriata / K.G. Kyazimov. – 2-e izd. per. i dop. – M.: Izd-vo YUrayt, 2019. – 202 s. – (Seriya: Universitetı Rossii)

2. Minser J., Investment in Human Capital and Personal Income Distribution. Journal of Political Economy, Supplement, October 1958

3. Kuznetsova, E. I. Ekonomicheskaya bezopasnost: uchebnik i praktikum dlya vuzov / E. I. Kuznetsova. — M. : Izdatelstvo YUrayt, 2018. — 294 s.;

4. Urazgaliev, V. SH. Ekonomicheskaya bezopasnost : uchebnik i praktikum dlya vuzov / V. SH. Urazgaliev. — 2-e izd., pererab. i dop. — M. : Izdatelstvo YUrayt, 2019. — 675 s.;

5. HanuShek, E.A., & Woessmann, L. (2012). Do Better Schools Lead to More Growth? Cognitive Skills, Economic Outcomes, and Causation. Journal of Economic Growth, 17(4), 321;

6. Mankiw, N.G., Romer, D., & Weil, D.N. (1992). A Contribution to the Empirics of Economic Growth. The Quarterly Journal of Economics, 107(2), 437